

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sayitova Umida Hikmatillo qizi

Alfraganus universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası

dotsent v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14916935>

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi pedagogik mexnatning barcha tomonlarida: kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mexnatning majmuiy natijasida namoyon bo'ladi va uning barcha komponentlari shakllanganligini talab etadi.

N.N.Mankoning fikricha, pedagogning texnologik kompetentligi - mavjud pedagogik tizim ob'ektlarini o'zgartirish faoliyatida qo'llaniladigan kreativ-texnologik bilimlar, qobiliyatlar va stereotiplar tizimidir. «Bilim olish faoliyatining amaliy va intellektual mexanizmlarini takomillashtirish, didaktik vositalar yordamida o'qish-o'rganish faoliyatining tashqi rejasini tuzish, o'quv xarakterlarini rejalashtirish va hokazolar boshqaruv hamda shakllantirishni tartibga keltirishning texnologik-pedagogik asoslari hisoblanadi. Bu umumiy kasbiy kompetentlikning maxsus bo'limi hisoblanadi».[1]

Psixologik kompetentlik, L.V.Andropovning fikricha, - mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish imkonini beradigan o'ziga xos psixologik (shaxsiy) quroli, uning psixologik madaniyatining bir qismidir.[2]

O'qituvchining psixologik kompetentligi ikkita blokdan iborat: intellektual (kognitiv) va amaliy (xarakterli). Intellektual blokka psixologik bilim va tafakkur, amaliy blokka psixologik ko'nikma va malakalar kiritilgan.

Psixologik-pedagogik kompetentlik deganda, M.I.Lukyanova fikricha, pedagogik faoliyatga va o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqotni o'rnatishga yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsning muayyan xislatlari (sifatlari)ning yig'indisi tushuniladi.[3]

Pedagog olim V.A.Slastenin fikriga muvofiq, bo'lajak mutaxassisni tayyorlash unda ushbu vazifalarni amalga oshiruvchi bilimlarini tarbiyalashni ko'zda tutadi, ya'ni analitik-refleksiv, tashkiliy, baxolash-axborot, konstruktiv-prognostik, korreksiyalash.[1] Bizning fikrimizcha, muallifning bu nuqtai nazari, o'qituvchi faoliyatining tuzilmasi haqida qaror topgan tasavvurlarni ko'p darajada aks ettiradi. Shu bilan birga, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi tuzilmasini tadqiq qilish pedagog mehnatini puxta taxlil qilish, uning tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta'lim konsepsiyasi amalga

oshirilayotgan sharoitlarda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi tomonidan qo'yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi.

B.Djuraevaning fikri faoliyatli yondashuvning amalga oshirilishiga ko'p darajada mos keladi: u o'qituvchi faoliyatining ushbu turlarini ajratadi:[2]

- Gnostik - umumkasbiy va ixtisoslik fanlari uchun xos bo'lgan bilimlar tarkibini mutaxassis kasbiy faoliyatining tipik masalalari tuzilmasiga integratsiyalash. O'quv fanini o'qitish maqsadlarini ishlab chiqish va tasniflash.
- O'quv-metodik - umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o'quv-metodik mazmunini tanlash va o'qitish dasturini talabalarning bilish faoliyatlari elementlari bo'yicha belgilash.
- Kreativ faoliyat - barcha ajratilgan mavzular bo'yicha o'quv dasturiga muvofik ravishda o'quv-metodik ta'minotni ishlab chiqish.
- Kommunikativ-tashkiliy - ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'zaro ishlashining kommunikativ-tashkiliy aspektlarini ta'lim oluvchilarning o'zicha boshqariladigan ishi jarayonida ishlab chiqish va nazoratni tashkil etish.

Bulajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi deyilganda ma'lum kasbiy soha bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan pedagog-mutaxassisning tayanch kompetentliklari, masalan, o'qituvchi, tarbiyachi, pedagog-psixolog, ijtimoiy pedagog, muhandis pedagog, pedagog-defektolog va boshqalarning kasbiy kompetentligi tushuniladi.

Bulajak mutaxassisning maxsus kasbiy kompetentligi deyilganda esa, pedagogik faoliyatni amalga oshiriladigan muassasa va faoliyat yo'naltirilgan ob'ekt, ya'ni, umumta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji, akademik litseyning o'ziga xosligi talab etadigan kasbiy kompetentlik yoki turli toifadagi bolalar, ota-onalar bilan ishlaydigan o'qituvchining kasbiy kompetentligi tushuniladi.

Bulajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda ularning pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotida muammoli vaziyatlarida aniq qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun fanlararo o'zaro aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish va uni tizimlashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirishda ta'limning yangi shakllaridan foydalanish, fundamental, xususan, pedagogik va texnik bilimlarni o'zlashtirishda fanlararo uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, pedagogik fanlarning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan uzaro aloqasi ko'p qirrali muammo bo'lganligi sababli nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslashni taqozo etadi.

Pedagog olim N.A.Muslimov fikricha - kompetentlilik yondashuvi kasbiy ta'limni

takomillashtirishning asoslaridan biri deb hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu operatsiyani bajarish ko'nikmalaridan iborat bo'lgan kasbiy maxoratning o'zigina emas, balki kasbiy maxorat, ijtimoiy axlok, jamoada ishlash qobiliyati, tashabbuskorlik kabi kasbiy va shaxsiy sifatlarning yig'indisidan iborat bo'lgan kompetentlilik talab etiladi.[3]

Shuni ta'kidlash kerakki, oliy talim muassasalari o'qituvchisining eng muhim vazifasi talabalarning kasbiy kompetentliklarini barqarorlashtirish, to'ldirish va uzatish mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich tarbiyalash uchun psixolog-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat. Ularni amalga oshirish bosqichlari quyidagicha: talabaning faoliyatini o'qituvchi boshqarishi; o'qituvchi va talaba tomonidan kasbiy kompetentlilik ish mexanizmlarining birgalikda boshqarilishi; bo'lajak mutaxassisning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishini o'zi boshqarishi.

REFERENCES

1. Нишоналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. - Т.: Фан, 1990. - 88 с.
2. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Пер. с англ. - М., 2002. - 396 с.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2006. - 713.
4. Селевко Г. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования УВП - М.: 2005.